

UO‘K(UDC, УДК): 1751

DETAL OBRAZLARDA RAMZ KATEGORIYASI (NAZAR ESHONQUL VA XORXE LUIS BORXES ASARLARI MISOLIDA)³

Davletova Shalola Bahodir qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent Davlat o‘zbek tili

va adabiyoti universiteti

tayanch doktoranti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: shaloladavletova96@gmail.com

ORCID ID 0009-000-0657-1713

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti vakillaridan biri Nazar Eshonqul hamda argentinalik yozuvchi Xorxe Luis Borxes ijodida detal obrazlar orqali ramziylikning badiiy–estetik ifodasi tahlilga tortiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi detalning obrazlar tizimda tutgan o‘rni, uning ramzga aylanish jarayoni va shu orqali yozuvchilar ijodidagi falsafiy, ruhiy va metafizik ma’nolarning ochib berilishidir. Har ikki yozuvchi asarlarida detal oddiy badiiy vosita sifatida emas, balki insonning ichki olamini, dunyoni anglashdagi murakkab ziddiyatlarini aks ettiruvchi ramziy kod sifatida ishlatiladi. Nazar Eshonqul asarlarida detal obrazlar Sharq tafakkurining ruhiy chuqurligini ifodalab, insonning ruhiy iztirobi, o‘zlikni anglash istagi va abadiyat bilan to‘qnashuvini ramziy shaklda ochib beradi. Xorxe Luis Borxes esa asarlarida detal orqali g‘arb falsafasining asosiy g‘oyalarini, ya’ni bilishning cheksizligi, haqiqatning noaniqligi va inson tafakkurining chegarasizligini ifodalaydi. Maqolada, shuningdek, Nazar Eshonqul va Borxes ijodidagi ramziy tafakkur o‘xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi. G‘arbning intellektual ramziyligi bilan Sharqning ruhiy ramziyligi bir nuqtada insonni va uning mavjudlikdagi mohiyatini anglashda tutashadi. Detal obrazlar bu jarayonda insoniy ong va badiiy idrokni birlashtiruvchi falsafiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Tadqiqotda adabiy detalning semantik imkoniyatlari, timsollar tizimi hamda estetik va g‘oyaviy funksiyalari aniqlanadi.

KALIT SO‘ZLAR

Detal, ramz, obraz, falsafiy tafakkur, metafizika, realizm, modernizm, postmodernizm, Nazar Eshonqul, Borxes, timsol, o‘zlik.

Received: November 11, 2025

Accepted: November 25, 2025

Available online: February 25, 2026

³ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Davletova Sh. Detal obrazlarda ramz kategoriyasi (Nazar Eshonqul va Xorxe Luis Borxes asarlari misolida).// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 35-47.

**THE CATEGORY OF SYMBOL IN DETAIL IMAGES
(IN THE WORKS OF NAZAR ESHONKUL AND JORGE
LUIS BORGES)**

Davletova Shalola Bahodir qizi

*Doctoral student of
Tashkent State uzbek language and literature
university named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan*

E-mail: shaloladavletova96@gmail.com

ORCID ID 0009-000-0657-1713

ABSTRACT

This article analyzes the artistic and aesthetic expression of symbolism through detailed imagery in the works of Nazar Eshonkul, a representative of Uzbek literature, and the Argentine writer Jorge Luis Borges. The main objective of the research is to explore the role of details in the system of imagery, the process of their transformation into symbols, and consequently, the revelation of philosophical, spiritual, and metaphysical meanings in the writers' works. In both authors' writings, details are employed not as simple artistic devices, but as symbolic codes reflecting the inner world of individuals and the complex contradictions in understanding reality. In Nazar Eshonkul's works, detailed imagery expresses the spiritual depth of Eastern thought, symbolically revealing human spiritual suffering, the desire for self-awareness, and the confrontation with eternity. Jorge Luis Borges, in his works, conveys the main ideas of Western philosophy through details, namely the infinity of knowledge, the uncertainty of truth, and the boundlessness of human thought. The article also examines the similarities and differences in symbolic thinking between Nazar Eshonkul and Borges. The intellectual symbolism of the West and the spiritual symbolism of the East converge in their understanding of humanity and the essence of existence. Detailed imagery serves as a philosophical bridge connecting human consciousness and artistic perception in this process. The study identifies the semantic possibilities of literary details, the system of symbols, and their aesthetic and ideological functions.

KEYWORDS

Detail, symbol, image, philosophical thought, metaphysics, realism, modernism, postmodernism, Nazar Eshonkul, Borges, symbolism.

КАТЕГОРИЯ СИМВОЛА В ОБРАЗАХ–ДЕТАЛЯХ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НАЗАРА ЭШОНКУЛА И ХОРХЕ ЛУИСА БОРХЕСА)

Давлетова Шалола Баходир кизи

Докторант,

Ташкентский государственный университет

узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: shaloladavletova96@gmail.com

ORCID ID 0009-000-0657-1713

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье анализируется художественно-эстетическое выражение символики через образы-детали в творчестве одного из представителей узбекской литературы Назара Эшонкула и аргентинского писателя Хорхе Луиса Борхеса. Основная цель исследования – раскрытие роли детали в системе образов, описание процесса ее превращения в символ и выявление транслируемых с помощью деталей философских, духовных и метафизических значений в произведениях узбекского и латиноамериканского писателей. В произведениях обоих авторов деталь используется не как простое художественное средство, а как символический код, отражающий внутренний мир человека и сложные противоречия в восприятии и понимании мира. Детальные образы в произведениях Назара Эшонкула выражают духовную глубину восточного мышления, символически раскрывая душевные страдания человека, стремление к самопознанию и столкновение с вечностью. Хорхе Луис Борхес в своих произведениях посредством деталей выражает основные идеи западной философии: бесконечность познания, неопределенность истины и безграничность человеческого мышления. В статье также анализируются сходства и различия символического мышления в творчестве Назара Эшонкула и Борхеса. Интеллектуальная символика Запада и духовная символика Востока сходятся в одной точке – в понимании человека и смысла его существования. Образы-детали в этом процессе служат философским мостом, соединяющим человеческое сознание и художественное восприятие. В исследовании определяются семантический потенциал литературной детали, система символов, а также их эстетические и идейные функции.

Деталь, символ, образ, философское мышление, метафизика, реализм, модернизм, постмодернизм, Назар Эшонкул, Борхес, символизм.

KIRISH

Adabiyot inson tafakkurining eng nozik, eng teran qatlamlarini ifoda etuvchi san'at turi sifatida har doim ramziy tafakkurga tayangan. Ramz, ya'ni simvol, bu ko'p qatlamli badiiy belgi bo'lib, u oddiy predmet yoki hodisaning ortida yashiringan chuqur ma'no, falsafiy yoki ruhiy mohiyatni ifodalaydi. Tarixan qaraganda, adabiyotning har bir davrida ramzning o'rni va vazifasi o'zgarib borgan: qadimiy davrlarda u mifologik ifoda sifatida, o'rta asrlarda diniy ma'noni yetkazuvchi vosita sifatida, uyg'onish davrida esa inson ruhiyati va ichki dunyosini aks ettiruvchi badiiy vosita sifatida qaralgan. XX asrda esa, ayniqsa modernizm va postmodernizm oqimlarida, ramzning funksiyasi yanada murakkablashdi, va u badiiy detal orqali yashirin, ko'p qatlamli ma'noni ifodalash vositasiga aylandi.

Adabiy detal esa asarda umumiy mazmunni yorituvchi, xarakter yoki voqeani chuqurroq ifodalovchi kichik, ammo juda ma'nodor elementdir. Detal va ramz biri-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, detal orqali yozuvchi real, ko'rinadigan obrazni yaratadi, ramz esa shu obraz orqali abstrakt, falsafiy yoki metafizik mazmunni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, detal va ramz adabiy ijodning tubini tashkil etadi, ularning uyg'unligi asarning g'oyaviy mazmunini aniqlashga xizmat qiladi.

XX asr adabiyoti, ayniqsa modernizm va postmodernizm oqimlari badiiy detal orqali inson tafakkurining murakkabligini, dunyoqarashning noaniqligini va insonning o'zligini anglash jarayonini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratdi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek adabiyotining zamonaviy namoyandalaridan biri bo'lgan Nazar Eshonqul va argentinalik yozuvchi Xorxe Luis Borxes ijodi badiiy tafakkur va ramziy tafakkur uyg'unligining yorqin namunalari sifatida qaraladi. Ularning ijodida detal — oddiy tasviriy vosita emas, balki inson va olam o'rtasidagi murakkab aloqani anglash, insonning ruhiy kechinmalarini ochib berish va ma'naviy–ma'rifiy g'oyalarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Nazar Eshonqul asarlarida detal obrazlar milliy ruh, Sharq tafakkuri va insonning ichki dunyosini ifodalovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Nazar Eshonqul va Borxes ijodidagi ramziy tafakkur bir-biridan madaniy va

falsafiy jihatdan farq qilsa–da, ularni umumlashtiruvchi jihatlar mavjud. Ikkala yozuvchi ham badiiy detal orqali inson va olam o‘rtasidagi murakkab munosabatni, mavjudlikning ko‘p qirraliligini va insonning o‘zligini anglash jarayonini ko‘rsatadi. Borxes G‘arb falsafasiga – Platon, Kant, Shopengauer va Berkli qarashlariga tayansa, Nazar Eshonqul Sharq – Navoiy, Attor, Jomiy, Jaloliddin Rumiy va xalq og‘zaki ijodidan ilhom oladi. Shu bois, ularning ramzlari turlicha manbalardan oziqlansa–da, falsafiy maqsad bir – insonning mavjudlikdagi mohiyatini anglash va uni badiiy tafakkur orqali ifodalash.

Shu nuqtai nazardan, adabiy detal va ramzning uyg‘unligi nafaqat badiiy ifoda, balki falsafiy ma‘noni yetkazishning vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Detal tasvir orqali o‘quvchiga real dunyo bilan bog‘lanish imkonini beradi, ramz esa shu detal orqali abstrakt, chuqur falsafiy va ruhiy qatlamlarni ochib beradi. Shu sababli XX asr adabiyotida detalning ramziy funksiyasi ortib, uni o‘rganish adabiy tafakkur, estetika va metafizika chegaralarini o‘rganishga yordam beradi.

Ushbu maqolada keltirilgan tahlilning maqsadi shundan iboratki, Nazar Eshonqul va Xorxe Luis Borxes ijodida detal obrazlarning ramziy vazifasi, u orqali yaratilgan metafizik va falsafiy qatlamlar hamda Sharq va G‘arb tafakkuri uyg‘unligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki yozuvchi uchun detal va ramz inson tafakkurining cheksizligi, mavjudlikni anglash jarayoni va ruhiy kechinmalarni badiiy shaklda ifodalashning muhim vositasidir. Shu bilan birga, ularning ijodida detalning estetik vazifasi, timsollik va metaforik imkoniyatlari ham mukammal tarzda amalga oshirilgan.

Shuningdek, kiritilgan tahlillar natijasida adabiy detalning funksiyasi nafaqat asar ichidagi obrazlarni boyitish, balki o‘quvchining tafakkurini rivojlantirish, metafizik va falsafiy savollarni uyg‘otish ekanligi aniqlanadi. Shu jihatdan, Nazar Eshonqul va Borxes ijodi tafakkur va ramziy tafakkur uyg‘unligi bo‘yicha o‘zbek va jahon adabiyotining qimmatli namunalaridir. Shu sababli ushbu maqola adabiyotshunoslik, estetik tafakkur va metafizik tahlil uchun muhim ilmiy hissa hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Ushbu tadqiqotda badiiy detalning inson obrazi, qahramon psixologiyasi va murakkab ichki dunyoni ochishdagi roli o'rganildi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida matn tahlili, qiyosiy tahlil, semiotik yondashuv va kontekstual tahlil tanlandi. Matn tahlili metodidan foydalanib, Nazar Eshonqulning "Tun Panjaralari", "Qora Kitob", "Maymun yetaklagan odam" va Borxesning "The Aleph", "The Library of Babel" kabi asarlaridagi makon, predmet va holat detallarining qahramon psixologiyasini ochishdagi roli chuqur o'rganildi (Eshonqul N., 2011, 110; Borxes X.L., 1998, 58). Shu orqali har bir detalning emotsional va ramziy funksiyasi aniqlanib, o'quvchi tafakkuriga ta'siri baholandi.

Qiyosiy tahlil yordamida Nazar Eshonqul va Borxes ijodidagi detalning metaforik va realistik funksiyalari o'rganildi. Semiotik yondashuv orqali detallar ramziy va metaforik qatlamda tahlil qilinib, qahramon ichki dunyosini ochuvchi kod sifatida baholandi (Muhammadiyeva F., 2023). Kontekstual tahlil esa asarlar yaratilgan ijtimoiy, madaniy va tarixiy muhitni, shuningdek, mualliflarning shaxsiy tajribasi va badiiy maqsadlarini hisobga olish imkonini berdi (Kuronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., 2010, 143). Shu tarzda, metodologiya orqali detalning qahramon xarakteri, ichki dunyosi va asar g'oyasini shakllantirishdagi roli tizimli va ilmiy asosda tahlil qilindi.

1. Inson obrazi va ichki dunyoni ochishda badiiy detalning roli

Adabiy ijod markazida insonning ichki dunyosi turadi – uning xayollari, ruhiy kechinmalari, ichki qarama–qarshiliklari, o'zligini anglash jarayoni. Bu jihatdan badiiy detal – tashqi makon, predmet va holatlarni ifodalovchi elementlar – qahramonning ichki dunyosini ochishda beqiyos vositadir (Muhammadiyeva F., 2023). Detallar o'quvchiga personajni anglash, uning ichki holatini his qilish imkonini beradi, shuningdek, asar g'oyasini chuqurroq qabul qilishga yordam beradi. Shu ma'noda, badiiy detal adabiyotda faqat tashqi tasvir vositasi bo'lib qolmay, balki metaforik va ramziy qatlam sifatida ham xizmat qiladi

Nazar Eshonqul ijodida predmet va holat detallarining inson ruhiyatini ochishda asosiy o‘rin tutishi kuzatiladi. Masalan, “Tun Panjaralari” qissasida qahramon atrofidagi uy tasvirida quyidagi elementlar keltiriladi:

“... Bir kun unga “Tun ertaklari” degan turkum hikoyalarimning birini o‘qib bergandim. Hikoyada deyarli hech narsa yo‘q. U qandaydir tashlandiq uy va bir parcha osmon ko‘rinib turgan deraza haqida edi. Uy eski, xaroba, ichini o‘t-o‘lan bosgan zax va badbo‘y hid tutib ketgandi...” (Eshonqul N., 2011, 45).

Bu yerda “eski”, “xaroba”, “o‘t-o‘lan”, “badbo‘y hid” kabi detallar qahramon ruhiyatini ochuvchi asosiy elementlarga aylanadi. Uy tashqi jihatdan tashlandiq bo‘lsa-da, u qahramon ichki dunyosidagi bezovtalik, o‘zini yo‘qotganlik, adoqsiz o‘ylar holatini ramziy tarzda aks ettiradi. Holat detallarining metaforik kuchi shundan iboratki, u personajning ichki turgunligi va umidsizligini makon orqali ifodalaydi.

Shuningdek, Eshonqulning “Qora Kitob” qissasida sharoit detallarining rolini ko‘rish mumkin: qahramon bir o‘rinda cho‘qqi-soqolning hovlisiga borganida, hovli uzoq vaqt davomida yig‘ishtirilmagan, chirigan, badbo‘y hidli bo‘lib tasvirlanadi:

“... hovli naq yuz yildan beri yig‘ishtirilmaganday to‘zib yotganini, hovlidan qo‘lansa – sasigan go‘shning hidiga o‘xshash hid kelish”, ini aytadi (Eshonqul N., 2011, 110).

Ushbu detallarning badiiy vazifasi shundan iboratki, ular qahramonning ichki holatini – adashuv, hayotiy ma’nosini topa olmaslik, ichki iztirobni o‘quvchiga his ettiradi. Tadqiqotchi N. Chulieva yozadi: “Nazar Eshonqul ijodida predmet va makon detallarini ichki ruhiyatni ochishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi” (Chulieva N., 2020, 78). Shu orqali Nazar Eshonqul detallarni tasviriy bezak emas, balki personaj ruhiyatini ifodalovchi asosiy vosita sifatida ko‘rsatadi.

Muhim jihati shundaki, Nazar Eshonqul detallarni o‘quvchiga emotsional ta’sirni hisobga olib joylashtiradi. Masalan, “Qora Kitob”da qahramon ichki dunyosini ochuvchi detallarning ketma-ketligi quyidagicha: “qulagan devor,

zo'rg'a ko'zga tashlanadigan andak vahmli xaroba uy, peshtaxtasi chirib qulab tushgan eshik, yarim nuragan hujra" (Eshonqul N., 2011, 112). Bu zanjirli detallar qahramon ichki kechinmalarini bosqichma–bosqich ochadi va ularning metaforik mazmuni o'quvchi ongiga asta–sekin yetkaziladi.

2. Personaj xarakterini yaratishda detallar

Personaj xarakterini shakllantirishda, uning tashqi qiyofasi va harakatlaridan tashqari, ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va tafakkur jarayoni ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy detal qahramonning psixologik portretini to'liq va jonli tasvirlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Detallar nafaqat tashqi olamni aks ettiradi, balki personajning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini va xotiralarini ham ochib beradi. Shu jihatdan, detal personajni o'quvchiga yaqinlashtiruvchi, uning ichki dunyosini vizual va hissiy qatlami bilan namoyon qiluvchi vositadir.

Nazar Eshonqul ijodida badiiy detalning bu funksiyasi ko'pincha qahramon va makon o'rtasidagi bog'liqlik orqali ifodalanadi. Qahramonning ichki holati, ruhiy notinchligi yoki iztirobi ko'pincha uning atrofidagi makon detallarida aks etadi. Masalan, "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida:

"... Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshikdan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda ... o'tirgancha oldida ... Hovlidan chirkin va badbo'y hid kelardi. ... Xayolimga birdan bu unduqadagi axlatlarni chol umr bo'yi saqlab kelgan bo'lsa kerak, degan fikr kelib qoldi" (Eshonqul N., 2011, 67).

Bu yerda "chirkin hid" va "badbo'y hid" sifatlari qahramonning ichki notinchligi va ruhiy iztirobini aks ettiradi. Eski eshik va axlat kabi predmetlar shaxsiy xotira, tajriba va vaqt bilan bog'langan ramziy qatlam yaratadi. Shu bilan birga, bunday detal qahramonning his–tuyg'ularini faqat tasvirlash bilan qolmay, ularni o'quvchi ongida ham jonlantiradi. O'quvchi qahramonni uning harakatlaridan, so'zlaridan tashqari, makon va predmetlar orqali his qiladi va uning ichki dunyosiga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nazar Eshonqulda detalning yana bir xususiyati shundaki, u personajning xotirasi va psixologik holatini ham uyg'unlashtiradi. Masalan, qahramon axlatni

ko‘rib, cholning ularni umr bo‘yi saqlab kelgani haqida fikr yuritadi. Bu tafsilot qahramonning ichki dunyosidagi tafakkur va hayotiy mulohazalarni ochib beradi, shuningdek, o‘quvchi uchun qahramon va makon o‘rtasidagi ramziy bog‘liqlikni sezdiradi.

Boshqa tomondan, Xorxe Luis Borxes ijodida detalning ramziy funksiyasi yanada murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u inson tafakkuri va metafizik tushunchalarni ochish vositasi sifatida ishlatiladi. Borxes hikoyalarida labirint, oyna, kitob, nuqta kabi elementlar qahramonning ichki dunyosi, tafakkur jarayoni va olamni idrok etish qobiliyatini ramziy tasvirlashda markaziy rol o‘ynaydi. Masalan, “The Aleph” hikoyasida:

“Alif” barcha joylarning bir nuqtada mujassamlangan ko‘rinishi sifatida tasvirlanadi, bu orqali qahramon o‘z bilish cheksizligi va vaqt–makon o‘rtasidagi bog‘lanishini anglaydi”. Bu tasvir orqali Borxes qahramonning faqat tashqi makon bilan emas, balki barcha mavjud olam bilan ichki bog‘liqligini, uning tafakkurining cheksiz va murakkab tabiatini ko‘rsatadi. Labirint motivi, masalan, inson tafakkurining murakkab tizimi, qaror qabul qilishdagi shubhalar va haqiqatni tushunishga bo‘lgan intilish sifatida ramziy ma’noga ega. Tadqiqotchi O. Tearle bu haqda shunday ta’kidlaydi: “Labyrinths reflect Borges’s theme of multiple intersecting realities and human cognition” (Tearle O., 2022, 33).

Shuningdek, Borxes detallari qahramonning ruhiy iztirobini va tafakkur jarayonining murakkabligini ko‘rsatibgina qolmay, o‘quvchida mavjudlik, vaqt va ma’naviyat haqidagi falsafiy mulohazalarni uyg‘otadi. Har bir detal – labirint, oyna, kitob yoki nuqta – qahramonning ichki dunyosi va tashqi olam o‘rtasidagi murakkab munosabatni ramziy tarzda ifodalaydi.

Shu tarzda, Nazar Eshonqul va Borxesda detalning ishlatilishi bir xil prinsipga – personajning ichki dunyosini aks ettirishga xizmat qilsa–da, Borxesda bu yanada murakkab, ko‘p qirrali va metafizik qatlam bilan boyitilgan. Nazar Eshonqulda esa detal qahramonning ruhiy holati va makon bilan bevosita bog‘liqligini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, Nazar Eshonqulda detal ko‘pincha hissiy

va psixologik effektini kuchaytirish uchun ishlatilsa, Borxesda u inson tafakkuri va haqiqatni idrok etish jarayoni bilan bogʻliq falsafiy va ramziy maʼno kasb etadi.

Natijada, badiiy detal har ikki yozuvchida ham personajni chuqurroq, koʻp qirrali va oʻquvchi ongida jonli qilib koʻrsatish vositasi sifatida ishlatiladi, ammo ularning estetik va ramziy yondashuvlari tafovut qiladi. Eshonqulda makon va predmetlar qahramonning ichki holatini aks ettiruvchi realistlik vosita boʻlsa, Borxesda detal inson tafakkuri, vaqt–makon tushunchasi va haqiqatning koʻp qirraliligi haqida falsafiy mulohazalarni uygʻotadi.

3. Murakkab ichki dunyo va metaforik kuch

Nazar Eshonqul asarlarida “xaroba uy”, “badboʻy hid”, “chirigan ustun va romlar” kabi detallar qahramonning ichki buzilgan olamini, ruhiy tanglikni ochadi. Masalan, “Zulmat saltanatiga sayohat” hikoyasida buni yaqqol sezish mumkin:

“... M. Tamaki va yana qandaydir qoʻlansa hidlar oʻrnashib qolgan toʻshakda oʻrnashib yotardi; tinmay tamaki tutatar va poʻk–poʻk yoʻtalardi. Xonasi ham xuddi hayoti kabi pala–partish edi” (Eshonqul N., 2011, 89).

Detallar oʻquvchiga qahramonning ruhiy iztirobini, yashash sharoiti bilan psixologik holatini toʻliq his qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, predmet detallar (bolta, pichoq, qamchi) qahramon kechinmalarini tashqi olam orqali ifodalaydi.

Borxesda ham detal va ramz integratsiyasi shaxsiyat, kurash, haqiqat va tasavvur masalalarini ochishga xizmat qiladi. Masalan, “The Library of Babel” hikoyasida har bir detal, jumladan, kitob inson bilish cheksizligini va haqiqatni izlashni ramzlashtiradi (Borxes X.L., 1998, 58). Shu bilan birga, labirint va oyna kabi detallar qahramon ichki tafakkuri, qaror qabul qilish jarayoni va identitet izlanishini koʻrsatadi. Detal Borxes hikoyalarida abstraktsion tarzda ishlatiladi: u nafaqat makon yoki predmet sifatida, balki qahramonning psixologik, intellektual va metafizik holatini ochuvchi ramziy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jihat Nazar Eshonqul asarlaridagi realistlik va emotsional detallardan farqli ravishda, Borxesda har bir detalning bir nechta metaforik qatlamga ega boʻlishini taʼminlaydi,

shuningdek o'quvchini tafakkur va ichki sayohatga chorlaydi.

Shu tarzda, har ikkala muallifda detal – qahramon ichki dunyosini ochish, uning ruhiy holatini ifodalash va asar g'oyasini chuqurroq yetkazish vositasi sifatida ishlatiladi, ammo Nazar Eshonqulda u realistik va emotsional funksiyani kuchaytirsa, Borxesda detallar metafizik va ramziy qatlam orqali tafakkurga yo'naltiriladi.

XULOSA

Nazar Eshonqul va Xorxe Luis Borxes ijodida badiiy detalning roli inson ruhiy olami, qahramon va personaj xarakterini ochish, hamda murakkab ichki dunyoni ramziy tarzda ifodalashda beqiyos ekanligi aniq ko'rinadi. Nazar Eshonqul asarlarida predmet, makon va holat detallarining emotsional va ramziy kuchi qahramonning ichki iztiroblarini, ruhiy turg'unligini, adashgan va o'zligini izlayotgan insonning psixologiyasini ochib beradi. "Tun panjaralari", "Qora kitob" va "Maymun yetaklagan odam" qissalaridagi eski, xaroba, chirigan uylar, badbo'y hidlar, musiqiy detal va predmetlar qahramon ichki dunyosini vizual va emotsional tarzda ko'rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Borxes ijodida esa detal ramziy va metaforik vazifa bilan ajralib turadi. Labirint, oyna, kitob, Alef kabi detallar qahramon tafakkuri, qaror qabul qilish jarayoni, shaxsiy izlanishi va identitet masalalarini ochishda markaziy ahamiyatga ega. Detallar Borxes hikoyalarida nafaqat tashqi makon sifatida, balki ichki dunyo, ma'no qatlamlari va o'quvchi tafakkurini shakllantiruvchi ramziy vosita sifatida ishlatiladi.

Shunday qilib, badiiy detal – nafaqat bezak, balki qahramon psixologiyasini, ichki kechinmalarini va asar g'oyasini ifodalashning samarali vositasidir. Nazar Eshonqul va Borxes ijodi bu jihatdan bir–biridan turlicha, ammo maqsad jihatdan uyg'un bo'lib, har ikki muallif ham detallardan shaxsiy, emotsional va metafizik ma'nolarni yetkazishda foydalanadi. Detal orqali o'quvchi qahramon ruhiy holatini, makon va predmetning ramziy kuchini his qiladi, asar g'oyasini chuqurroq anglaydi.

Natijada, badiiy detal inson obrazi va qahramon psixologiyasini ochishda, murakkab ichki dunyo va metaforik qatlamlarni shakllantirishda ajralmas vosita sifatida namoyon bo'ladi. Nazar Eshonqul va Borxes ijodi esa badiiy detal imkoniyatlarining cheksizligini, uning o'quvchiga hissiy–emotsional ta'sirini va ramziy ma'nolarni yetkazishdagi samaradorligini aniq namoyish qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Борхес, Х. Л. Collected Fictions / Х. Л. Борхес. – New York: Viking, 1998. – 560 p.
2. Борхес, Х. Л. The Library of Babel // Collected Fictions / Х. Л. Борхес. – New York: Viking, 1998. – P. 57–78.
3. Эшонкул, Н. Shaftoli guli / Н. Эшонкул. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 240 б.
4. Қуронов, Д., Мамажонов, З., Шералиева, М. Адабиётшунослик луғати / Д. Қуронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 456 б.
5. Мухаммадиева, Ф. Бадий детал ва қаҳрамон психологияси/ Ф. Мухаммадиева. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – 180 б.
6. Султон, И. Адабиёт назарияси / И. Султон. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 312 б.
7. Ziyouz. Назар Эшонкул асарлари кутубхонаси [Электрон ресурс]. – Режим доступа: <https://www.ziyouz.com> (қўлланилган сана: 12.11.2025).
8. Uzsmart. Назар Эшонкул асарлари [Электрон ресурс]. – Режим доступа: <https://uzsmart.ru> (қўлланилган сана: 12.11.2025).
9. Қозоқбой, Й. Замонавий ўзбек адабиётида рамз ва маъно муаммоси / Й. Қозоқбой. – Тошкент: Фан, 2011. – 220 б.
10. Эко, У. The Open Work / У. Эко; пер. с англ. А. Cancogni. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. – 276 p.

REFERENCES

1. Borges, J. L. (1998). *Collected fictions*. New York: Viking.
2. Borges, J. L. (1998). *The library of Babel*. In *Collected fictions* (pp. 57–78). New York: Viking.
3. Eshonqul, N. (2011). *The flower of peach*. Tashkent: Uzbekiston.
4. Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2010). *The dictionary of literature*. Tashkent: Akademnashr.
5. Muhammadiyeva, F. (2023). *Literary detail and psychology of protagonist*. Tashkent: O‘zbekiston.
6. Sulton, I. (1980). *The theory of Literature*. Tashkent: O‘qituvchi.
7. Ziyouz. (n.d.). *The library of Nazar Eshonkul*. Retrieved November 12, 2025, from <https://www.ziyouz.com>
8. Uzsmart. (n.d.). *The works of Nazar Eshonkul*. Retrieved November 12, 2025, from <https://uzsmart.ru>
9. Qozoqboy, Y. (2011). *The problem of symbol and meaning in modern uzbek literature*. Tashkent: Fan.
10. Eco, U. (1989). *The open work* (A. Cancogni, Trans.). Cambridge, MA: Harvard University Press.